

## MAHALLIY BYUDJETLARNING BARQAROR DAROMAD MANBALARINI SHAKLLANTIRISH

Rahmonqulov Humoyun Abror o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

e-mail: [humoyunrahmonqulov@icloud.com](mailto:humoyunrahmonqulov@icloud.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20303201>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti misolida mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbalarini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda 2021–2025 yillar davomidagi daromadlar, xarajatlar va transfertlar dinamikasi tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, viloyat mahalliy byudjeti daromadlari mazkur davrda sezilarli o'sish tendensiyasini namoyon etgan bo'lsa-da, xarajatlarni to'liq qoplash imkoniyati chekliqligicha qolmoqda va byudjet respublika transfertlariga yuqori darajada bog'liq bo'lib turibdi. Maqolada mahalliy byudjet daromad bazasini kengaytirish, soliq manbalarini diversifikatsiya qilish hamda transfertlarga bog'liqlikni kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### Kalit so'zlar:

Mahalliy byudjet, barqaror daromad manbalari, byudjetlararo transfertlar, soliq daromadlari, byudjet taqchilligi, Qashqadaryo viloyati, moliyaviy mustaqillik.

### Kirish

Zamonaviy iqtisodiyotda davlat moliya tizimining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligi va barqarorligiga bog'liq. Mahalliy byudjetlar aholi turmush sifatini bevosita belgilovchi ijtimoiy xizmatlar, infratuzilma va hududiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtiruvchi asosiy manba sifatida davlat boshqaruvi tizimida muhim o'rin egallaydi. Shu bois, mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbalarini shakllantirish masalasi nafaqat moliya fani, balki davlat boshqaruvi va hududiy iqtisodiyot nazariyasi uchun ham dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan byudjet-soliq sohasidagi tizimli o'zgarishlar mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik hududlarda mahalliy byudjet daromadlari xarajatlarni to'liq qoplash imkoniyatiga ega emas va markaziy byudjetdan ajratiladigan transfertlarga bog'liqlik hali ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bu holat o'z navbatida hududlarning moliyaviy mustaqilligini cheklab, mahalliy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda tashqi moliyaviy manbalarra bog'liqlikni kuchaytiradi.

Mahalliy byudjetlar daromad bazasining barqaror bo'lmasligi bir qancha omillar bilan belgilanadi. Jumladan, soliq bazasining tarmoq va korxonalar doirasida torligi, mulkiy daromadlar ulushining pastligi, norasmiy iqtisodiyot sektorining mavjudligi hamda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligining yetarli darajada rivojlanmaganligi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, byudjetlararo moliyaviy munosabatlarning hali to'liq takomillashtirilmaganligi va daromadlarni markazlashtirish tendensiyasining saqlanib qolayotganligi ham mahalliy moliyaviy mustaqillikka erishishni qiyinlashtirmoqda.

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti misolida barqaror daromad manbalarini shakllantirish muammolari ilmiy jihatdan o'rganilgan. Viloyat o'zining mineral xom ashyo boyliklari, sanoat va qishloq xo'jaligi salohiyatiga qaramasdan, mahalliy byudjet moliyaviy barqarorligi nuqtai nazaridan bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda.

Mazkur tadqiqot ushbu muammolarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini ilmiy tahlil qilish va yechimlarni asoslash maqsadida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligini oshirish borasidagi nazariy yondashuvlarni amaliy tahlil bilan uyg'unlashtirgan holda, O'zbekiston sharoitida barqaror daromad manbalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Tadqiqot natijalari nafaqat Qashqadaryo viloyati, balki shunga o'xshash iqtisodiy tuzilishga ega boshqa hududlar uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini bir-birini to'ldiruvchi ilmiy usullar majmui tashkil etadi. Tadqiqotda asosiy yondashuv sifatida tizimli tahlil usuli qo'llanilgan bo'lib, u mahalliy byudjet daromad manbalarini o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida o'rganish imkonini bergan.


Empirik ma'lumotlarni tahlil qilishda miqdoriy va sifatli tahlil usullari birgalikda tatbiq etilgan. Miqdoriy tahlil doirasida byudjet ko'rsatkichlarining dinamikasi, o'sish sur'atlari va tendensiyalar o'rganilgan. Sifatli tahlil esa olingan natijalarni iqtisodiy-moliyaviy nuqtai nazardan talqin qilish va sababiy bog'liqlikni asoslash maqsadida qo'llanilgan. Bundan tashqari, taqqoslama tahlil usuli yordamida viloyat byudjet ko'rsatkichlari yillar kesimida va respublika miqyosidagi umumiy tendensiyalar bilan qiyoslanib o'rganilgan.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari, amaldagi byudjet qonunchiligi hamda mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tashkil etadi.

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan byudjet islohotlari doirasida mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish va barqaror daromad manbalarini shakllantirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qashqadaryo viloyati o'zining neft-gaz, kimyo va qishloq xo'jaligi sohalaridagi salohiyatiga qaramasdan, mahalliy byudjet daromadlari tarkibida hali ham respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlarga bog'liqlik yuqori darajada saqlanib qolmoqda. 2021–2025 yillar davomida viloyat mahalliy byudjeti daromadlarining dinamikasini o'rganish ushbu muammoning mohiyatini yanada yaqqolroq namoyon etadi. Mazkur davrda daromadlar hajmi sezilarli darajada o'sgan bo'lsa-da, o'sish sur'atlarining bir xil emasligi va ayrim yillarda keskin sekinlashuv kuzatilishi daromad manbalarining barqarorlik darajasiga nisbatan savol tug'dirmoqda. Shu munosabat bilan quyida viloyat mahalliy byudjeti daromadlarining 2021–2025 yillardagi miqdoriy va tarkibiy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi hamda barqaror daromad manbalarini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar baholanadi.

#### **1-rasm.**

**Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjet daromadi  
(2021-2025)**


Manba: Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti ma'lumotlari

1

**1-jadval.**
**Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjet daromadlarining 2021–2025 yillardagi dinamikasi (mlrd. so'mda)**

Yil	Daromad (mlrd. so'm)	O'sish
2021	2 722,1	—
2022	3 482,9	+27,9%
2023	4 561,2	+30,9%
2024	4 573,0	+0,3%
2025	5 427,0	+18,7% <sup>2</sup>

Jadval va 1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti daromadlari 2021–2025 yillar mobaynida umumiy o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2021 yilda 2 722,1 mlrd. so'mni tashkil etgan daromadlar 2025 yilga kelib 5 427,0 mlrd. so'mga yetgan, ya'ni to'rt yillik davr ichida o'sish sur'ati 99,4 foizni tashkil etgan.

<sup>1</sup> <https://openbudget.uz/>
<sup>2</sup> <https://openbudget.uz/>

O'zbekiston Respublikasining amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, Qashqadaryo viloyati kabi dotatsion hududlarda mahalliy byudjet daromadlari asosan uch manbadan shakllanadi. Birinchisi — soliq daromadlari bo'lib, ularga foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i hamda mobil aloqa xizmatlari va aksiz tovarlaridan tushadigan soliqlar kiradi. Ikkinchisi — soliqsiz daromadlar, ya'ni davlat mulkini ijaraga berishdan olingan tushumlar, jarimalar va boshqa majburiy to'lovlar. Uchinchisi — respublika byudjetidan ajratiladigan byudjetlararo transfertlar bo'lib, ular viloyatning o'z daromadlari xarajatlarni to'liq qoplamagan taqdirda markazdan yo'naltiriladi. 2023 yil ma'lumotlariga ko'ra, viloyat byudjet xarajatlari 10,5 trln so'mni tashkil etgan holda, o'z daromadlari 4,6 trln so'mni tashkil etgan, qolgan qism esa transfertlar hisobidan qoplangan. Bu esa viloyat daromadlarining xarajatlar hajmini atigi 43-44 foiz qoplashini, qolgan 56-57 foiz esa markaziy byudjetga bog'liqligini ko'rsatadi.


Daromadlar dinamikasini yillar kesimida tahlil qilish muhim xususiyatlarni namoyon etadi. 2022–2023 yillarda o'sish sur'ati 27,9 va 30,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023–2024 yillarda bu ko'rsatkich keskin pasayib, atiga 0,3 foizga tushgan. Bu holat daromad manbalarining muayyan tarmoqlarga haddan tashqari bog'liqligi va iqtisodiy kon'yunkturadagi o'zgarishlarga nisbatan sezgirligini ko'rsatadi. 2025 yilda o'sish sur'ati 18,7 foizga tiklangan bo'lsa-da, yillik ko'rsatkichlardagi bunday keskin tebranishlar barqaror daromad bazasi shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Shunday ekan, tahlil qilinayotgan davrda daromadlarning miqdoriy o'sishi kuzatilgan bo'lsa-da, sifat jihatidan — ya'ni barqaror va prognozlash mumkin bo'lgan daromad manbalarini shakllantirish nuqtai nazaridan — muammo o'z yechimini topmagani ko'zga tashlanmoqda. Xususan, soliq bazasining tor doirada qolishi, mulkiy daromadlar ulushining pastligi va transfertlarga yuqori

bog'liqlik viloyat moliyaviy mustaqilligini cheklashda asosiy omil bo'lib qolmoqda. Bu esa mahalliy byudjet daromad bazasini kengaytirish va mustahkamlash borasida tizimli chora-tadbirlar ko'rish zaruratini belgilab beradi.

Endi esa shu Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjetlarining xarajatlar qismini yillar kesimida ko'rib chiqamiz.

## **2-rasm.**

**Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjet xarajatlari  
(2021-2025)**


Manba: Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti ma'lumotlari

3

**2-jadval.**
**Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjet xarajatlarining 2021–2025 yillardagi dinamikasi**

(mlrd. so'mda)

Yil	Xarajat (mlrd. so'm)	O'zgarish
2021	6 095,4	—
2022	5 534,2	-9,2%
2023	8 380,2	+51,4%
2024	6 586,0	-21,4%
2025	8 193,0	+24,4% <sup>4</sup>

2-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti xarajatlari 2021–2025 yillar davomida keskin tebranishlar bilan xarakterlanadi. 2022 yilda xarajatlari kamaygan bo'lsa, 2023 yilda keskin oshib, eng yuqori darajaga — 8 380,2 mlrd. so'mga yetgan, 2024 yilda esa yana pasayib, 2025 yilda qayta ko'tarilgan.

<sup>3</sup> <https://openbudget.uz/>
<sup>4</sup> <https://openbudget.uz/>


Xarajatlarning asosiy qismi ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan. Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya xarajatlari umumiy byudjet xarajatlarining yarmidan ortig'ini tashkil etgan. Qolgan qismi iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, irrigatsiya tizimlari, yo'l qurilishi va mahalliy boshqaruv organlarini saqlashga sarflangan. Bu ko'rsatkich viloyat byudjetining asosan ijtimoiy xarakter kasb etishini va ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilayotgan mablag'lar ulushining hali ham chekliqligicha qolayotganini anglatadi.

Xarajatlar dinamikasidagi bunday tebranishlar byudjet rejalashtirish jarayonining barqaror emasligidan dalolat beradi. Bu holat mahalliy byudjet xarajatlarini barqarorlashtirish va ularni daromad manbalari bilan muvofiqlashtirish zaruratini belgilab beradi.

Mahalliy byudjet daromadlari xarajatlarni to'liq qoplamagan hollarda respublika byudjetidan byudjetlararo transfertlar ajratiladi. Qashqadaryo viloyati uchun bu mablag'lar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy manba hisoblanadi. Biroq transfertlarga yuqori darajada bog'liqlik viloyatning moliyaviy mustaqilligini cheklab, barqaror daromad manbalarini shakllantirish zaruriyatini yanada dolzarb qiladi. Shu sababli transfertlar hajmining yillar davomidagi o'zgarishini o'rganish mahalliy byudjet siyosatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida 2021–2025 yillardagi transfertlar dinamikasi tahlil qilinadi.

**3-rasm.**

**Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjetiga kelib tushgan transfertlar tarkibi (2021–2025)**



5

3-rasmda keltirilgan doiraviy diagramma ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatiga ajratilgan transfertlar hajmida 2021–2025 yillar davomida keskin tebranishlar kuzatilgan. Ayniqsa, 2023 yilda transfertlar eng yuqori darajaga ko'tarilgan bo'lib, bu jami transfertlarning 40,4 foizini tashkil etgan. 2024–2025 yillarda esa transfertlar miqdori keskin qisqarib, 2023 yilga nisbatan deyarli 4 barobar kamaygan.

Bu holat ikki xil talqin qilish mumkin: bir tomondan, viloyat o'z daromad manbalarini mustahkamlash orqali transfertlarga bog'liqlikni kamaytirgan bo'lishi mumkin; ikkinchi

<sup>5</sup> <https://openbudget.uz/>

tomondan esa, markaziy byudjetdan ajratmalar qisqarishi mahalliy xarajatlarni moliyalashtirish muammosini yanada kuchaytirgan bo'lishi ehtimoli mavjud. Shunday ekan, transfertlar dinamikasidagi bunday o'zgarishlar viloyat mahalliy byudjeti uchun barqaror va mustaqil daromad manbalarini shakllantirishning qanchalik muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

### **Xulosa va takliflar**

Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti misolida o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy byudjet daromadlarining 2021–2025 yillar davomida sezilarli o'sishi kuzatilgan bo'lsa-da, barqaror va mustaqil daromad manbalarini shakllantirish masalasi hali o'z yechimini topgan emas. Daromadlar dinamikasidagi keskin tebranishlar, byudjet xarajatlarining o'z daromadlar hisobidan to'liq qoplanmasligi va respublika transfertlariga yuqori bog'liqlikning saqlanib qolishi viloyat moliyaviy mustaqilligini cheklovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida mahalliy byudjetlarning barqaror daromad bazasini mustahkamlash uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Avvalo, soliq bazasini kengaytirish va diversifikatsiya qilish zarur bo'lib, buning uchun norasmiy iqtisodiyot subyektlarini rasmiy tizimga jalb etish, mulk va yer solig'i tushumlarini oshirish hamda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini raqamli texnologiyalar orqali yaxshilash lozim. Shuningdek, mahalliy hokimiyat tasarrufidagi davlat mulki va er resurslaridan samarali foydalanish orqali soliqsiz daromadlar ulushini ko'paytirish maqsadga muvofiq. Respublika transfertlariga bog'liqlikni bosqichma-bosqich kamaytirish esa mahalliy hokimiyat organlariga qo'shimcha moliyaviy vakolatlar berilishi bilan parallel ravishda amalga oshirilishi lozim. Nihoyat, viloyatning neft-gaz, kimyo sanoati va qishloq xo'jaligi sohasidagi mavjud iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish, yangi investitsiyalarni jalb etish hamda turizm va xizmat ko'rsatish sohaslarini rivojlantirish mahalliy soliq bazasini kengaytirishning strategik yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbalarini shakllantirish uzoq muddatli va izchil siyosat orqali erishiladigan strategik maqsad bo'lib, unga erishish uchun markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida samarali hamkorlik hamda byudjet-soliq qonunchiligini muntazam takomillashtirish zarur.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. <https://openbudget.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning iqtisodiy islohotlar va hududlarni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to'plami. – Toshkent, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – Toshkent, 2024.
7. Musgrave R., Musgrave P. Public Finance in Theory and Practice. – New York: McGraw-Hill, 2017.
8. Stiglitz J. Economics of the Public Sector. – New York: W.W. Norton & Company, 2015.
9. Oates W. Fiscal Federalism. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 2018.

10. Shah A. Local Budgeting and Financial Management. – Washington D.C.: World Bank Publications, 2016.
11. Bird R., Vaillancourt F. Fiscal Decentralization in Developing Countries. – Cambridge University Press, 2019.

